

“UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING SHAXSIY EHTIYOJLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI TASHKIL QILISH”

*Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim
muassasasi direktori Alimova Nigora Israilovna
“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi umumiy o’rta ta’limni tashkil etish bo’yicha
pedagog xodim Abdullayev Aziz Xabibullayevich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim texnologiyalarini tashkil qilish orqali ularning fanlarni oson o‘zlashtirishlarini ta’minlashning amaliy jihatlari o‘rganiladi. Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim texnologiyalarini tashkil qilish, o‘quvchilarga fanlarni o‘zlashtirishda duch keladigan qiyinchiliklarni yengish va ularning bilimlarni samarali o‘zlashtirishlarini ta’minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek maqolada, amaliy jihatlar sifatida o‘quvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitilishi, vizual va interaktiv materiallar bilan ishlash, hamda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Uzoq muddat, shaxsiy ehtiyojlar, ta’lim texnologiyalari, jismoniy ehtiyojlar, gospital ta’lim, individual, Mehrli maktab, planshet, tibbiyot muassasasi

Bugungi kunda uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarga ta’lim berishning samaradorligini oshirishda bir nechta omillar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan innovatsion pedagogik yondashuvlar, interaktiv o‘qitish metodlari va texnologiyalarni qo‘llash shular jumlasidandir. Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarga ta’lim berishda o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirish orqali fanlarni o‘zlashtirish jarayonini soddalashtirishga qaratilgan amaliy yondashuvlar zarurdir. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni o‘qitishdagi motivatsiyasini oshirish va ilmiy usullar bilan ta’lim olishni yanada samarali qilishga yordam beradi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim texnologiyalarini tashkil qilish orqali o‘quvchilar yangi bilimlarni nafaqat yaxshi o‘zlashtirish, balki ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Uzoq muddat davolanishni talab etadigan kasalliklar bolalarga jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ular o‘zlarining sog‘lig‘i bilan kurashish, davolanish rejimiga moslashish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini saqlab qolish va ijtimoiy hayotlarini davom ettirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari quyidagi jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini o'z ichiga oladi:

Jismoniy ehtiyojlari – bolalarga davolanish jarayonida qulaylik yaratish, o'quv muhitini ularning jismoniy holatiga moslashtirish, zarur bo'lganda tibbiy yordam ko'rsatish.

Ruhiy ehtiyojlar – ularni qo'llab-quvvatlash, tushunish, motivatsiya berish, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini saqlab qolishga yordam berish.

Ijtimoiy ehtiyojlar – ularga o'quv guruhiga qo'shilishga, do'stlar bilan aloqalarni saqlab qolishga, ijtimoiy hayotda faol bo'lishga yordam berish.

O'quv ehtiyojlari – ularga o'qish jarayonida moslashtirilgan o'quv rejimi, o'quv materiallari, o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlash va yo'nalish berish.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni ahvolini tushunish, ularni qo'llab-quvvatlash, ularga o'quv ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv rejimi, o'quv materiallari va baholash usullarini yaratish, o'zlarining tajribalarini baham ko'rish va bir-birlariga qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyat yaratish, ehtiyojlari, qiyinchiliklarini tushunish va ularga yordam berish uchun muntazam ravishda muloqot qilish, ularning jismoniy va ruhiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv muhitini yaratish zarur.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj o'quvchilarga qo'llab-quvvatlash va tushunishni bildirish, ularning o'qish jarayonini qulaylashtirish va ularning muvaffaqiyatini ta'minlash juda muhimdir. Biz ularning qiyinchiliklarini tushunish va ularga yordam berish uchun qo'limizdan kelganini qilishimiz kerak. Ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta'lim texnologiyalarini tashkil etish orqali biz ularning o'zlarining potensialini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beramiz.

Ta'lim texnologiyasi – o'rganishni osonlashtirish uchun kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot va [ta'lim nazariyasi](#) va amaliyotidan birgalikda foydalanish.

Pedagogik texnologiya 30-yillarda an'anaviy xususiy yo'nalishga qarshi, aniqrog'i bu yo'nalishdagi noaniqlik va yuzakilikka qarshi chiqqan yo'nalishdir. Bu yo'nalish o'z maqsadi qilib aniq samarali natijaga erishishni konkret yo'llarini ishlab chiqishini qo'yadi. Bunday ta'lim texnologiyasiga erishish bir qarashda oson bo'lib ko'rinsada katta pedagogik o'zgartirishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini talab etdi. 50-yillarda bu masalani programmashtirilgan ta'limga o'tish orqali hal qilishga harakat qilinadi. 60-yillarda muammoli ta'lim nazariyasi vujudga keldi. Muammolarni bosqichma-bosqich yechib borish, soddadan murakkabga yo'nalish belgilangan kafolatlangan natijaga olib kelishi kerak edi. 60-yillarning ikkinchi yarimida ta'lim texnologiyasi g'oyasi vujudga keldi va ushbu g'oyani amaliyotga olib kelish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Masalan :AQSHda 1961-yilda "Pedagogik texnologiya" jurnali, 1971-yilda "Kommunikatsiya va texnologiya" assotsiatsiyasi tashkil etildi. 1971-yilda Audivizualli kommunikatsiya bayoni nomli jurnallar chop etila boshladi.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish kerak.

1.O'quvchi subyektiga alohida e'tibor berish.

2. Texnologik xususiyatga ega bo'lishi

3. Tizimlilik (pedagogik texnologiya) xususiyatiga ega bo'lishi kerak, ya'ni mantiqiy bog'lanishlar va yaxlitlikning mavjud bo'lishi

4. Boshqariluvlik xususiyati. Ya'ni diagnostika, rejalashtirishga qarab natijalarni korrekktivlash, moslashtirish.

5. Samaralilik xususiyati. Natijalari samarali, optimallikni talab etuvchi hamda standart ta'limga to'g'ri keluvchi bo'lishi lozim.

6. Konspektuallik xususiyati. Har bir pedagog texnologiya chuqur g'oyaga ega bo'lishi, ilmiy asoslanishi lozim.

Gospital ta'limda ta'lim texnologiyalari o'quvchining individual yondoshuv masalasini oldinga suradi va unga asoslanadi. O'quvchining individualligiga asoslanish bu uning aktivligini oshirish, uning yangi xususiyatlarni, qobiliyatlarni kashf etish va rivojlantirishdir. Gospital ta'limda har bir o'quvchining tanlash imkoniyati va erkin rivojlanish imkonini yaratish mavjud. Ya'ni "Rivojlantiruvchi ta'limni" ishga tushushini ta'minlashdir. O'z davrida "Xotira maktabidan" fikrlash maktabiga o'tish va undan keyin "rivojlanish maktabiga" o'tish maqsad qilib qo'yiladi.

Ma'lumki, bundan bir necha yil oldin yuzaga kelgan pandemiya holati ta'lim tizimi oldiga kutilmagan yangi vazifalarni qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, umumta'lim maktablari o'qituvchilari, davlat telekanallari ishtirokida teledarslar yo'lga qo'yildi. Internet sarhadlarida masofadan o'qishni tashkil etish uchun har xil platformalar va dasturiy ta'minotlar ishga tushirildi. Dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan masofadan o'qitish kurslari tashkil etildi. Pedagoglar ixtiyorida Internet va dasturiy ta'minot vositalari paydo bo'ldi. Maktab o'quvchilari uchun yaratilgan darsliklar QR-kod va "To'ldirilgan voqelik" (ing. AR – Augmented reality) texnologiyalari bilan boyitildi.

Ayni vaqtda gospital ta'limda ta'lim texnologiyalarini qo'llash va mashg'ulotlar sifatini yaxshilash uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Hech kimga sir emas, hozirgi o'quvchi bundan 10 – 15 yil oldingi o'quvchi emas. Ma'lumot topish uchun kutubxonaga bormaydi, ijtimoiy tarmoqdan eshitgan axborotlarni tez qabul qiladi va shular asosida fikr yuritadi. Ma'lumot topish uchun Google yoki shunga o'xshash raqamli servislardan foydalanadi. Bu klassik pedagogika uchun muammo, lekin qiziqishlar spektri bilan to'g'ri ishlaydigan bo'lsak, bular pedagogik maqsadga erishish uchun ayni muddaodir.

Hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog'liq: ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o'qish bilan yakunlashgacha. Mehrli maktabda ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan dars jarayonlarida manfaatli foydalanish yo'lga qo'yilgan. Bu yerda planshet va interaktiv sinf doskasi ta'lim olishning sosiy elementiga aylangan. Bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayonidagi o'zlashtirish va ta'lim darajasi samaradorligi oshadi. Raqamli darsliklar

shunday berilganki, birorta mavzuni o'zlashtirmasdan keyingisiga o'tishga imkon berilmaydi. Bu shaffof va to'ppa-to'g'ri nazorat tizimidir.

O'quvchilarning deyarli barchasi shifoxonaga o'quv qurollarisiz keladi. Ana shundav vaziyatda dars mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar va o'quvchilar planshetlardan foydalanishni talab etadi. Har bir planshetda 1 – 11-sinflar uchun darsliklar yuklatilgan. Bundan tashqari o'quvchilar planshetdan foydalanish orqali yanada qiziqarli narsalarni yaratish imkonini beradi

O'quvchining shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini tashkil qilish - bu har bir bolaning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradigan muhim omildir.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini tashkil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi tasavvur doirasini kengaytirishda muhim omil bo'lishi mumkin. Interaktiv usullar, masalan, guruhli muhokamalar, ro'yxatlar, simulyatsiyalar va klinik mashg'ulotlar o'quvchilarga fanlarni osonroq o'zlashtirishda yordam beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ular amaliyotda o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy texnologiyalar, masalan, virtual va tibbiy simulyatsiya dasturlari, gospital ta'limida tasavvur doirasini kengaytirishga yordam beradigan samarali vositadir. O'quvchilar simulyatsiya yordamida real hayotdagi holatlar bilan tanishib, o'zlarini klinik muhitda his qilishadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga murakkab tushunchalarni va fanlarni osonroq o'zlashtirish imkonini beradi, chunki ular nazariy bilimlarni real va amaliy muhitda sinab ko'rishadi.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta'lim, bu har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu o'quvchilarning ta'lim olish ehtiyojlarini aniqlash, ularga moslashtirilgan o'quv materiallari va usullarini yaratish va ularning muvaffaqiyatini kuzatishni o'z ichiga oladi.

Moslashtirilgan ta'limning afzalliklari:

O'quvchilarning ta'lim olish samaradorligini oshiradi: O'quvchilar o'zlariga moslashtirilgan ta'lim olishganda, ular o'rganish jarayonida ko'proq qiziqish va motivatsiya his qilishadi.

O'quvchilar o'z-o'ziga ishonishiga yordam beradi: O'quvchilar o'zlarining kuchli tomonlarini va qiyinchiliklarini bilganlarida, o'zlariga bo'lgan ishonchlari oshadi.

O'quvchilarning ta'lim olish usullarini rivojlantiradi: Moslashtirilgan ta'lim o'quvchilarning o'zlariga mos o'rganish uslublarini topishlariga yordam beradi.

Ularning muvaffaqiyatini oshiradi: Ular o'zlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim olishganda, o'zlarini muvaffaqiyatli his qilishadi va o'zlarining potensialini to'liq ro'yobga chiqarishadi.

Moslashtirilgan ta'limni amalga oshirish uchun quyidagi qadamlarni qo'llashingiz mumkin:

- O'quvchilarning o'rganish uslublari, kuchli tomonlari, qiyinchiliklarini aniqlash;
- O'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv materiallari, topshiriqlar, baholash usullarini yaratish;
- O'quvchilarning o'rganish jarayonini kuzatish va kerak bo'lganda o'zgartirishlar kiritish;
- O'quvchilarga o'zlarining o'rganish jarayonida yordam berish va ularni rag'batlantirish.

Moslashtirilgan ta'lim tibbiyot muassasalaridagi o'qituvchilar uchun juda muhimdir. U o'quvchilarning o'rganish samaradorligini oshiradi, ularning o'zini o'zi ishonchiga yordam beradi va ularning muvaffaqiyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini tashkil qilish ularning o'qish jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, o'qishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish va ijtimoiy hayotini davom ettirishga yordam beradi.

Ta'lim texnologiyalarini samarali tarzda tashkil qilish uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 234-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-martdagi "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 134-sonli qarori
3. Avalos, L., Fernandez, M.B., Teachers of Hospital Pedagogy: A Systematic Review. Paidéia (Ribeirão Preto), 2021, vol. 31, DOI: 10.1590/1982-4327e3139
4. Jiménez, N. N. V., Montes, J. E. O., & Alcocer, E. C. P. Hospital pedagogy: A space of love and recognition for the oncological pediatric patient. Texto & Contexto - Enfermagem, 2019, 28, e20180112. DOI: 10.1590/1980-265X-TCE-2018-0112

5. Souza, Z., & Rolim, C. The voices of the teachers in the hospital pedagogy: Unveiling possibilities and confrontations. *Revista Brasileira de Educação Especial*, 2019, 25(3), 403-420. doi: 10.1590/s1413-65382519000300004
6. Якиманская И.С. Требования к учебным программам, ориентированным на личностное развитие школьников // *Вопросы психологии*. 1994. №2. С. 64-67.
7. Башмаков М. И., Шадрин В. Ю. Мастерская продуктивного обучения как средство индивидуального развития, профессиональной и профессиональной подготовки и социальной адаптации молодёжи Санкт Петербурга // *Школьные технологии*. 2000. № 4. С. 60.
8. Королева, Е. Г. Индивидуальный образовательный маршрут: принципы построения // *Образование: ресурсы развития*. Вестник ЛОИРО. 2020. № 4. С. 53-56.
9. Адамян Е.И., Колосова Е.Б. Пространство детства ребенка на длительном лечении: зарубежный и отечественный опыт // *Детство как антропологический, культурологический, психолого-педагогический феномен: материалы VII Международной научной конференции*. Самара, 24 декабря 2021 года. В рамках проекта «А.З.Б.У.К.А. детства». / Отв. ред.: Т.А. Чичканова. Самара: МБУК г.о. Самара «МДКГ». ООО «Научно-технический центр». 2022. С. 16-23.
10. Александрова О.В., Ткаченко А.Е., Кушнаерва И.В. Психологические особенности детей и подростков в восприятии ими болезни на разных этапах ее течения // *Педиатр*. 2018. Т. 9. № 3. С. 124-127.